

"O'zkimyosanoat" AJ ijro apparati va tarmoq korxonalarida ijro intizomiga mas'ul xodimlar malakasi oshirildi

// 28 April 2023 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ijro-intizomiga-masul-xodimlar-malakasi-oshirildi>



"O'zkimyosanoat" AJ ijro apparati va tarmoq korxonalarida ijro intizomiga mas'ul xodimlar 2023-yil 26-27-aprel kunlari Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi tomonidan tashkil etilgan "Davlat organlari va tashkilotlarida Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlarining ijrosiga mas'ul xodimlarning malakasini oshirish" o'quv kurslarida qatnashdilar.

O'quv kursi mashg'ulotlarida tinglovchilarga O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, qaror, farmoyish va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari hamda topshiriqlarining ijrosini samarali tashkil qilish bo'yicha nazariy bilimlar berildi. Xususan, qonunchilik hujjatlari bo'yicha amalga oshirish grafiklari, nazorat rejalarini tayyorlash, tasdiqlash va ijroga qaratishda "ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi yordamida topshiriqlar ijrosini ta'minlashda ta'sirchan tizimni yaratish maqsadga muvofiq ekanligi tushuntirildi.

Tinglovchilarga davlat namunasidagi sertifikatlar taqdim etildi.











  uzkiyosanoat

  uzkiyosanoat.uz

 (+99878) 140-74-26


"O'zkiyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI